VOLUME II | ISSUE 3 | MARCH-APRIL

Journal of Culture and Art

КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО
МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ

2024

ISSN: 2181-4562

IMFAKTOR
Science driven pages

Available online at www.imfaktor.com

ISSN: 2181-4562
DOI Journal 10.56017/2181-4562

МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ ЖУРНАЛИ

II-ЖИЛД, 3-СОН

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-II, НОМЕР-3

JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-II, ISSUE-3

ТОШКЕНТ – 2024

МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

№ 3 (2024) DOI http://dx.doi.org/10.56017/2181-4562-2024-3

БОШ МУҲАРРИР:

Халикулова Гўзал Эркиновна	Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти профессори в.б., Санъатшунослик фанлари номзоди

МАСЪУЛ МУҲАРРИР:

Меликўзиев Иқбол Мамасодиқович	Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти кафедра мудири, профессор в.б., Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ:

Касимов Нозим Козимович	Маданият ва туризм вазирлиги “Таълим ва илм-фанни ривожлантириш бошқармаси” бошлиғи, профессор
Ходжаметова Гулчира Илишевна	Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти Нукус филиали “Санъатшунослик” факультети декани, Тарих фанлари номзоди, профессор
Абдувоҳидов Фахриддин Мелигалиевич	Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти кафедра мудири, доцент, Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Кадиров Рамз Турабович	Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Саҳна нутқи” кафедраси доценти
Умаров Мамур Боташикович	Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Санъатшунослик ва маданиятшунослик” кафедраси профессори в.б., фалсафа фанлари номзоди
Худоев Ғани Муҳаммадович	Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти "Чолғу ижрочилиги ва мусиқа назарияси" кафедраси профессори в.б., Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Бердиханова Шахида Нурлыбаевна	Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати институти "Ўзбек мақоми тарихи ва назарияси" кафедраси мудири, санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Дўсанов Раҳимжон Раимқулович	Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти, “катта ўқитувчи”, мустақил тадқиқотчи
Суннатиллаев Асатилло Суннатович	Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати институти “Илмий тадқиқотлар, инновациялар ва илмий-педагогик кадрлар тайёрлаш” бўлими бошлиғи, мустақил изланувчи (PhD)
Алланбаев Рудакий Оринбаевич	Қорақалпоғистонда хизмат кўрсатган артист, “Шуҳрат” медали соҳиби, профессор в.в.б
Зиявутдинова Зулфия Усеиновна	“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент
Раимова Дилфузахон Махаммадсолиевна	“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент
Ботирова Хилола Турсунбаевна	“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент

*“**Маданият ва санъат**” журнали 2023 йил 24 февраль куни **№ 065356**-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган. Мазкур журнал **6 та** халқаро маълумотлар базаларида индексланган бўлиб, жорий йил учун **UIF 2023 = 7.7 “импакт-фактор”** кўрсатгичига эга.*

*Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 24 июлдаги 01-02/1199-сонли хатига мувофиқ ушбу журналда чоп этилган мақолалар **хорижий мақолалар сифатида тан олинади.***

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдураҳмон Хасанов

Таҳририят манзили: Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй. Почта индекси 100152. Веб-сайт: www.imfaktor.uz/com

Телефон номер: +99894-410 11 55, **E-mail:** tahririyat@imfaktor.uz

© “IMFAKTOR Pages” илмий нашриёти , 2024 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2024 йил.

ISSN: 2181-4562

МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

GAIPOVA Mohigul Anvar qizi
O‘zbekiston davlat konservatoriyasi
Nukus filiali

Ilmiy rahbar: **ABATBAEVA Rano Allambergenovna**
O‘zbekiston davlat konservatoriyasi
Nukus filiali
https://doi.org/10.5281/zenodo.11059650

BETAKROR OVOZ SOHIBASI BAG‘DAGUL JAQSIMURATOVA

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O‘zbekiston Davlat Konservatoriyasi Nukus filialida hozirgi kunda faoliyat olib borayotgan ko‘plab professor o‘qituvchilar talaba yoshlarning musiqa sohasidagi faolligi haqida so‘z boradi. Qoraqalpoq vokal san’ati davomchisi, betakror ovoz sohibasi, tajribali pedagog Bag‘dagul Jaqsimuratovaning ijod yo‘li, ish faoliyati, shogirdlari va ijro qilgan asarlari keltirilgan. Betakror ovoz sohibasi Bag‘dagul Jaqsimuratova ta’lim olgan ustozlari, uning ijro qilgan opera, musiqali drama asarlaridagi ariyalar, xor, romanslar va konsertlardagi dasturlari haqida, bugungi kundagi ilmiy ishlari va ish faoliyatlari haqida ma’lumotlar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: musiqa, opera, vokal, ariya, ansambl, teatr, aktyor, rechitativ, xor, dirijyor, spektakl, festival, balet.

ОБЛАДАТЕЛЬНИЦА УНИКАЛЬНОГО ГОЛОСА БАГДАГУЛЬ ДЖАКСИМУРАТОВА

АННОТАЦИЯ

В данной статье освещена деятельность многих профессоров, преподавателей, студентов и молодежи, работающих в настоящее время в Нукусском филиале Узбекской государственной консерватории. Будет представлен творческий путь, трудовая деятельность, ученики и выступления Багдагуль Джаксимуратовой – продолжательницы каракалпакского вокального искусства, обладательницы уникального голоса и опытного педагога. Была дана информация об уникальных педагогах вокала Богдагуль Джаксимуратовой, ариях, исполненных ею в опере, музыкальной драме, хоре, романсе и концертных программах, текущей научной деятельности и творческой деятельности.

Ключевые слова: музыка, опера, вокал, ария, ансамбль, театр, актер, речитатив, хор, дирижер, спектакль, фестиваль, балет.

UNIQUE VOICE ACTRESS BAGHDAGUL JAQSIMURATOVA

ANNOTATION

This article highlights the activities of many professors, teachers, students and youth currently working in the Nukus branch of the Uzbek State Conservatory. The creative path, work activity, students and performances of Bagdagul Dzhaksimuratova, a successor of Karakalpak vocal art, owner of a unique voice and an experienced teacher, will be presented. Information was given about the unique vocal teachers of Bogdagul Dzhaksimuratova, arias performed by her in opera, musical drama, choir, romance and concert programs, current scientific activities and creative activities.

Key words: music, opera, vocals, aria, ensemble, theater, actor, recitative, choir, conductor, performance, festival, ballet.

Biron bir xalq yo‘qki o‘z qobig‘ida rivojlanmaydi, rivojlana olmaydi ham. Har bir xalq boshqa xalqlarning yutuqlari, tajribalarini o‘zlashtirgan va rivojlantirgan holda yuksaladi, yuksalib kelmoqda. Bugungi kunda yurtimizda madaniyat sohasiga katta e’tibor qaratilmoqda. Shu qatorda Qoraqalpoq madaniyati va san’atiga bo‘lgan e’tiborini alohida takidlab jiozdir.

Bunga misol qilib prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 2-oktyabr kuni Qoraqalpog‘iston Respublikasiga tashrifi davomida hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Yuqori Kengashining navbatdan tashqari sakkizinchi sessiyasida berilgan topshiriqlar va kengaytirilgan ravishda o‘tkazilgan 73-sonli majlis bayonnomasining 94-bandida O‘zbekiston Davlat konservatoriyasining Nukus filialini tashkil etish bo‘yicha, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2021-yil 5-apreldagi “O‘zbekiston Davlat Konservatoriyasining Nukus filialini tashkil etish haqida”gi 186-sonli qaroriga binoan Qoraqalpog‘istonda O‘zbekiston Davlat konservatoriyasi tashkil etildi [1, 2].

Ushbu oliy dargohning Qoraqalpog‘istonda ochilishi qoraqalpoq madaniyati va musiqasining yanada rivojlanishiga katta turtki bo‘ldi. O‘zbekiston Davlat Konservatoriyasi Nukus filialida hozirgi kunda ko‘plab professor o‘qituvchilar talaba yoshlarga o‘z ixtisosliklari bo‘yicha faoliyat yuritmatlar. Shu qatori “Umum-kasbiy va ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi Bag‘dagul Jaqsimuratova ham akademik xonandalik yo‘nalishi bo‘yicha konservatoriya talaba yoshlariga kuch g‘ayratini ayamasdan o‘z bilimlarini berib kelmoqda.

Bag‘dagul Jaqsimuratova 1978-yil Qanliko‘l tumanida tug‘ilgan. 1985-yili Qanliko‘l tumanidagi Michurin nomili o‘rta ta’lim maktabining 1-sinfiga qabul qilinadi. 9 yil davominda maktabni yaxshi baholarga ta’lim olib, muvaffaqiyatli tamomlaydi. So‘ngra ikki yil davomida Qanliko‘l tumani uchelishesida hisobchi bo‘limida tahsil oladi. Uchelisheni muvaffaqiyatli tamomlagandan so‘ng tuman kantorida hisobchi lavozimida ish olib boradi. Lekin bolaligidan musiqaga bo‘lgan qiziqishi tufayli 1997-yili avgust oyida Japaq Shamuratov nomidagi musiqa bilim yurtiga O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq artisti, Berdaq nomidagi davlat mukofoti sovrindori, O‘zbekiston xalq ta’limi a’lochisi buyuk san’atkor va pedagog Bazarbay Nadirov oldiga keladi.

Afsuski musiqa bilim yurtiga kirish imtihonlari iyun oyida bo‘lib o‘tganligini aytadi. Shunga qaramasdan Bag‘dagul Jaqsimuratovaning yoqimli va jarangdor ovozini eshitgan Bazarbay Nadirov uni o‘qishga qabul qilishini aytadi va ushbu yilning o‘zida sentyabr oyidan boshlab Bag‘dagul Jaqsimuratova Japaq Shamuratov nomidagi musiqa bilim yurtida bilim olishni boshlaydi. Bag‘dagul Jaqsimuratova bir yil davomida O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, Qoraqalpog‘iston xalq artisti Kenesbay Serjanov sinfida vokal san’ati mutaxasisligidan to‘liq bilim va ko‘nikmalarini orttiradi. Ushbu bir yil davomida “Bayterek” nomli ko‘rik tanlovida hamda bir nechta spektakllarda o‘zining istedodini sahnada ijro qilib faol qatnashadi [3].

1998-yildan dars jarayonlarini Bazarbay Nadirov sinfida davom ettiradi va uch yil davomida ustozidan ko‘plab romanslar, xalq qo‘shiqlari shu bilan bir qatorda o‘zbek, qoraqalpoq, xorijiy operalardan ariyalar ijro etish sir-asrorlarini o‘rganadi. Musiqa bilim yurtida o‘qish bilan bir qatorda Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat akademik musiqali teatrida xor artisti sifatida faoliyat olib boradi. Teatrdagi faoliyati davomida bir qancha spektakllarda qatnashadi. Jumladan “Axmoq podsho” spektaklida Anarning rolini a’lo darajada ijro etadi.

“...Opera janriga bo‘lgan qiziqishim dastlab O‘zbekistonga xizmat ko‘rsatgan artist Eliza Aytniyazovaning yoqimli ovozi bilan ijro etgan asarlarini eshitish bilan boshlandi”-deb ma’lumot beradi Bag‘dagul Jaqsimuratova. Keyinchalik klassik asarlarga qiziqishi ortgan Bag‘dagul Jaqsimuratova ustozi Bazarbay Nadirov rahbarligida Respublika miqyosida bo‘lib o‘tgan “Yosh ijroshilar” tanlovida qatnashib nufuzli 1-o‘rinni qo‘lga kiritadi va O‘zbekiston Davlat konservatoriyasiga imtixonsiz davlat granti asosida o‘qishga tasis etiladi. 2001-yildan o‘qish faoliyatini O‘zbekiston Davlat konservatoriyasi Akademik xonandalik ixtisosligi bo‘yicha ustozi Muqaddas Rizaevaning sinfida o‘z bilimlarini yanada orttiradi va ushbu yili oktyabr oyidan 2004-yilga qadar Alisher Navoiy nomidagi opera va balet teatrida xor artisti bo‘lib ish olib boradi. Bu erda chet el va o‘zbek kompozitorlari asarlarini ijro qilib, saxna asarlarida ko‘nikmalarini yanada shakillantiradi. Ustozi Muqaddas Rizaevadan vokal sirlarini, ko‘plab operalardagi ariyalarning ijro qilish usullarini teran o‘zlashtiradi.

2006-yili koservatoriyani muvaffaqiyatli tamomlagach ushbu yilning o‘zida O‘zbekiston Davlat konservatoriyasi magistratura bosqichiga davlat granti asosida o‘qishga qabul qilinadi. O‘qish jarayonlarini ustozi Muqaddas Rizaeva sinfida davom ettiradi hamda 2008-yili magistraturani yaxshi baholarga yakunlaydi [4].

Bag‘dagul Jaqsimuratova taniqli vokal xonandalari Monserrat Kabale, Maria Kallas, Luchano Pavarottilarga havas qilishini aytib o‘tadi. O‘zbek vokal xonandalaridan Saodat Kabulova, Nazira Ahmedova, Halima Nasirova, Miyassar Razzoqovalarning ijro qilgan asarlarini sevib tinglaydi va ular repertuaridan “Dugonalar”, “Kel sevgilim” singari asarlarini hozirgi kungacha sevib ijro qilib kelmoqda. “Ko‘plab kopozitorlarning asarlarini ijro qildim, lekin ular ichida eng ko‘p sevib ijro etadigan asarlarim J.Puchchini, V.A.Motsart, J.Verdi, va G.Donisetti singari buyuk kompozitorlarning asarlari bo‘ldi”-deb ma’lumot beradi ajoyib ovoz sohibasi. Shu kunga qadar ijro qilgan asarlaridan V.A.Motsart «Sexirliy nay» operasidan «Tun malikasi» ariyasi, J.Puchchini «Butterflay xonim» operasidan «Butterflay xonim» ariyasi, J.Puchchini «Bogema» operasidan «Myuzetta» ariyasi, Sh.Guno «Romeo va Juletta» operasidan «Juletta» ariyasi, B.Vinchentso «Norma» operasidan «Norma» ariyasi, M.I.Glinka «Ivan Susanin» operasidan «Antonida» ariyasi, R.Korsakov «Qorqiz» operasidan «Qorqiz» ariyasi, P.I.Chaykovskiy «Iolanta» operasidan «Iolanta» ariyasi, S.A.Yudakov «Maysaraning ishi» operasidan «Oyxon» ariyasi, M.Ashrafiy «Dilorom» operasidan «Dilorom» ariyasi, N.Muhammeddinov «Ajiniyaz» operasidan «Xanzada» ariyasi, N.Muhammeddinov «Ajiniyaz» operasidan «Ayborek» ariyalarini ijro qilib kelmoqda.

Dunyoda bitta kasb bor: O‘qituvchilik, qolgan kasblar uning hosilasi. Shu boisdan Bag‘dagul Jaqsimuratova ham o‘z umr yo‘lini o‘qituvchilik kasbi bilan bog‘ladi. Ustozlaridan olgan bilimlarini kelajak yoshlarga o‘rgatishni maqsad qilib qo‘ydi. 2008-yil sentyabr oyidan e’tiboran bugungi kunga qadar Nukus ixtisoslashtirilgan madaniyat maktabida ko‘plab iqtidorli yoshlarga vokal san’ati sirlarini o‘rgatib kelmoqda.

Dars berish jarayonlarida ustozlaridan olgan bilimlarini shogirdlariga o‘rgatib nems, italian, rus, o‘zbek, qoraqalpoq va boshqa tillardagi asarlarni teran ijro qilish usıllarini o‘rgatib kelmoqda. Bag‘dagul Jaqsimuratovaning shogirdlari hozirgi kunda oliy bilim yurtlarida tahsil olib va bir nechtasi san’at sohasida faoliyat yuritib kelmoqda. Xususan: O‘razalieva Raziya Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat universiteti musiqa san’ati fakulteti o‘qituvchisi, Miratdinova Shaxzada Nukus ixtisoslashtirilgan madaniyat maktabi o‘qituvchisi, Karimbaeva Sarbinaz, Asanova Nasiba O‘zbekiston Davlat konservatoriyasi talabasi, Gayipova Moxigul, Turebaev Samandar, Turdimuratova Aziza O‘zbekiston Davlat konservatoriyasi Nukus filiali talabasi.

Hozirda Nukus ixtisoslashtirilgan madaniyat maktabi bilan bir qatorda 2023-yil sentyabr oyidan e'tiboran O'zbekiston Davlat konservatoriyasi Nukus filiali Akademik xonandalik yo'nalshi talaba yoshlariga o'z kuch g'ayrati bilan bilim berib kelmoqda.

Konservatoriyadagi ish faoliyatini boshlaganiga kam vaqt bo'lishiga qaramasdan shogirdlari Keunimjaeva Dilnaz, Qutlimuratova Xulkar, Moldashov Bauirjanlar ko'plab yutuqlarga erishib kelmoqda. Shu qatori Keunimjaeva Dilnaz ustozidan olgan bilimlarini yana bir marotaba oqlagan holda, mart oyida bo'lib o'tgan «Yoshlik bahori» yosh opera ijrochilar festivalida faol ishtirok qilib, «Eng yaxshi ayol ovozi» naminatsiyasini olishga muyassar bo'ldi [5].

O'z ishiga masuliyat bilan yondoshib, yurtimizda ta'lim sohasinda olib borilayotgan ishlar, bundagi vazifalar va yoshlar tarbiyası masalalarini te'ran tushinadigan, bilimli, katta ish tajribasiga ega ijodkor ustoz sifatida o'z hamkasblari orasida cheksiz hurmat va e'tiborga ega mutaxasislardan biri hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda kasbiy mahoratini rivojlantirib, yoshlarga bilim berishning yangi usullarini ommalashtirishda o'z bilim va tajribasini berib kelmoqda. Bag'dagul Jaqsimuratova izlanuvchan, fidoiy pedegog bo'lishi bilan bir qatorda, mexribon ona, umr yo'ldoshi bilan birga bir o'g'il va bir qizni tarbiyalab kelmoqda. Bag'dagul Jaqsimuratova kelajakda ko'plab shogirdlar tayyorlab, Qoraqalpoq vokal va opera san'atini yanada rivojlantirishda o'z hissasini qo'shishga katta ishonch bildirib qolamiz.

ИҚТИБОСЛАР/СНОСКИ/REFERENCES

1. Muallifning bergan ma'lumotlaridan yozib olingan
2. QORAQALPOQ AKADEMIK QO'SHIQCHILIK SAN'ATIDA BAZARBAY NADIROVNING TUTGAN O'RNI МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛИНИНГ 2023/1-СОНИ
3. Roza Kutekeeva, Nightingale of Karakalpak Academic Vocal Art CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE eISSN: 2660-6828 | Volume: 04 Issue: 06 June 2023 https://cajlpc.centralasianstudies.org
4. Абатбаева, Рано Алламбергеновна. "ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН МУСИҚА МАДАНИЯТИНИ РИВОЖЛАНИШИДА МАШХУР БАСТАТОР Н. МУҲАММЕДДИНОВНИНГ ЎРНИ." Oriental Art and Culture 3.1 (2022): 648-653.
5. Allambergenovna, Abatbaeva Rano. "THE MANIFESTATION OF EUROPEAN AND NATIONAL TRADITIONS IN THE OPERA" GULAYIM"." International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences 2.2 (2022): 185-187.
6. Abatbaeva, R. (2023). KOMPOZITOR NAJIMADDIN MUXAMMEDDINOV DO'RETIWSHILIGINDE ERTEK JANRÍ (Toǵız tońqıldaq bir shińkildek ertegi tiykarında). Вестник музыки и искусства, 1(2), 46–51.
7. Abatbaeva, R. "International Scientific Journal Theoretical & Applied Science manifestation of european and national traditions in the karakalpak ethno-opera «gulayym» SOI: 1.1/TAS DOI: 10.15863/TAS http." T-Science. org 18 (2022).

ISSN: 2181-4562
DOI Journal 10.56017/2181-4562

МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ ЖУРНАЛИ

II-ЖИЛД, 3-СОН

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-II, НОМЕР-3

JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-II, ISSUE-3

«Маданият ва санъат» электрон журнали 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «**IMFAKTOR Pages**» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz